



## O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, t.f.d. prof.

| ARTICLE INFORMATION                                                                                                                                                              | ABSTRACT                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Received:</b> xxxx</p> <p><b>Accepted:</b> xxxx</p> <p><b>Issue:</b> 1</p> <p><b>DOI:</b> xxxx</p>                                                                         | <p>Ushbu maqolada muallif tomonidan O'zbekiston sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'ri ko'rsatib berilgan bo'lib, bu sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmi va iqtisodiyotga yo'naltirayotgan investitsiyalari bilan asoslangan. Shu bilan birga, bozor ko'rsatkichlari rivojlangan bozorlar bilan taqqoslanib xulosalar shakllantirilgan. Bozorda mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablariga aniqlik kiritilgan. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan sug'urta sohasi uchun kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.</p> |
| KEYWORDS                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <p>Sug'urta bozori, sug'urta tarmoqlari, sug'urta xizmatlari, sug'urta kompaniyalari, sug'urta mukofotlari, sug'urta to'loqlari, anderayting, sug'urta sohasi mutaxassislari</p> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |

### Kirish

Sug'urta faoliyati tadbirkorlik tavakkalchiliklari oqibatlarini, xalqaro munosabatlardagi savdo, turizm va boshqa jarayonlarda yuzaga keladigan xatarlarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotdagi barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotga investitsiyalar yo'naltirish uchun sezilarli manbalarni shakllantirish hamda investitsiya risklarini yumshatish xususiyatlariga egaligi bilan, iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri sifatida amal qiladi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarning rivojlangan sug'urta bozorlari xalqaro sug'urta bozori darajasida amal qilib, xalqaro bozorlarga xos katta hajmdagi risklarning sug'urtaviy himoyasini ta'minlamoqda. Natijada bunday sug'urta bozorlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hisssasi 8-12 foizni tashkil etmoqda.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda, ushbu jarayonga tobora kirib borayotgan mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish davom etayotgan va ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining ko'lam keskin darajada oshib borayotgan bir paytda, sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Bu albatta, o'z navbatida, sug'urta faoliyati va sug'urta bozorini rivojlantirish hamda uni huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy jihatdan boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, sug'urtalashning yangicha shakllarini amalga kiritishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston sug'urta bozori o'tgan yillar davomida sezilarli darajada kengaydi, takomillashdi, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmi va turlari yuqori darajada oshdi. Ayniqsa so'nggi 6 yil ichida o'sish yuqori darajada yuz berib, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmi 5,4-marta oshganligini qayd etish mumkin.

Ammo tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, olib borilayotgan juda ko'plab tadbirlar, qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlarga qaramasdan, mamlakatimizda sug'urta sohasi hozirgi zamon talablari darajasida rivojlana olmayapti. Ko'p sonidagi potensial sug'urtalanuvchilardagi mavjud risklarning katta qismi sug'urtalanmay qolmoqda. Sug'urta iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmagan. Ushbu holat mazkur sohani ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq qilishni talab etmoqda. Mazkur holatlarni e'tiborga olgan holda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida sug'urta

sohasida mamlakali kadrlar tayyorlash hamda sohadagi mavjud muammolarni o'rganish va ilmiy asosda tadqiq qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston uchun sug'urta sohasi nisbatan yangi soha bo'lganligi tufayli malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud edi va ushbu muammoga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi natijasida ushbu muammo hozirga qadar saqlanib qolmoqda. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bundan bir necha yil oldin sug'urta yo'nalishida bakalavrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsada, mazkur yo'nalishda ilmiy salohiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning yetarli emasligi hamda mazkur muammoni hal etishga bo'lgan e'tiborsizlik natijasida ushbu yo'nalish yopilib ketgan edi. Vaholanki hozirga qadar sug'urta tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning asosiy qismi oliy ta'limning sug'urta yo'nalishida emas, balki boshqa turli yo'nalishlarda tahsil olgan kadrlardan iborat bo'lib kelmoqda. Ushbu holatni e'tiborga olgan holda, universitetimizda bundan besh yil oldin "sug'urta ishi" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash qayta yo'lgan qo'yildi va o'tgan o'quv yilida ushbu yo'nalishda magistrlar tayyorlash ham yo'lga qo'yildi. Uning davomi sifatida ushbu o'quv yilida sug'urta sohasida kamida ikki yillik ish faoliyatiga ega bo'lgan, o'rta-maxsus bilim yurtlarida o'qigan xodimlar suhbat asosida sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilindi. Shu bilan birga, sug'urta sohasidagi mavjud muammolarni o'rganish hamda ilmiy jihatdan tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida sug'urta yo'nalishida bir nechta doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi va hozirda olti nafar tadqiqotchilar tomonidan shu yo'nalishda doktorlik dissertatsiyalari ustida ish olib borilmoqda. Ilmiy faoliyat natijalarini e'lon qilib borish hamda sug'urta faoliyatidagi amaliy yutuqlar va tajribalarni yoritib borish maqsadida universitet qoshida mazkur jurnal ta'sis etildi.

Talabalarga berilayotgan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashga shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir nechta yetakchi sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan va ularning davomi sifatida sug'urta

laboratoriyasi tashkil etilib, ushbu laboratoriyada sug'urta kompaniyalarining rahbar va yetakchi mutaxassislari ishtirokida tizimli ravishda mahorat darslari tashkil etib kelinmoqda.

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolda xalqaro sug'urta bozorlarida mustahkam o'rin egallashiga erishish yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika iqtisodiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida bugungi kunda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar iqtisodiyot moliya tizimining tarkibiy qismi hisoblangan sug'urta sohasining roli oshib borishi uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratmoqda. Yaqin 2019-yildan buyon sug'urta sohasida yangi Qonunning hamda turli me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining to'g'ridan-to'g'ri sug'urta sohasiga taalluqli 2 ta qarori va Vazirlar mahkamasining 8 ta qarori qabul qilinganligi davlatimizning ushbu sohaga bo'lgan e'tibori qay darajada yuqori ekanligidan dalolatdir.

O'zbekiston sug'urta bozorining bugungi holatini tasavvur qilish maqsadida bir necha raqamlarni keltirish mumkin. Bugungi kunda sug'urta bozorida 42 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 8 tasi hayot sug'urtasi tarmog'iga va qolganlari umumiy sug'urta tarmog'iga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari hisoblanadi. 2021-yil natijalari bo'yicha barcha sug'urta kompaniyalari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 3 trln. 733 mlrd. so'mdan ortiqni (2016-yilga nisbatan 5,4 baravar ko'p) va ular tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3 trln. 747 mlrd. so'mdan ortiqni (2016-yilga nisbatan 4,3 baravar ko'p) tashkil etdi. Mazkur yilda sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchilarga to'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi 1 trln. 235 mlrd. so'mni (2016-yilga nisbatan 9,5 baravar ko'p) tashkil etdi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchilar oldida olingan javobgarliklar hajmi 2021-yilda 1 238,4 trln. so'mni tashkil etdi (2016-yilda 298,1 trln. so'm). Sug'urta kompaniyalari ustav kapitalarining jami miqdori 2021-yilda 1 546 trln. so'mni tashkil etdi (2016-yilda 443,1 mlrd. so'mni tashkil etgan).

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, O'zbekiston sug'urta bozorida ko'rsatilayotgan xizmatlarning o'sish darajasi nisbatan yuqori. Ammo quyida keltirilgan ikkita ko'rsatkichni rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlaridagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslaganimizda O'zbekiston sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi o'ri va aholi orasiga kirib borganlik darajasi sezilarli darajada past ekanligini ko'rish mumkin. Bu quyidagi ko'rsatkichlar:

sug'urta kompaniyalari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarining YAIMdagi hissasi 2021-yilda 0,5 foizni tashkil etdi (2016-yilda ushbu ko'rsatkich 0,35 foizni tashkil etgan);

kishi boshiga to'g'ri kelayotgan sug'urta mukofotlari 2021-yilda 105 837 so'mni tashkil etdi (2016-yilda 21935 so'mni tashkil etgan).

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta mukofotlarining mamlakat YAIMidagi hissasi o'rtacha 8-12 foizni, kishi boshiga to'g'ri kelayotgan sug'urta mukofotlari o'rtacha 2000 AQSH dollarini tashkil etib, ba'zi mamlakatlarda uning hajmi 7000 AQSH dollarigacha yetadi.

Mamlakatimizda sug'urta sohasining bu qadar orqada qolayotganligining ko'plab sabablarini keltirish mumkin. Asosiy sabablardan biri sifatida mustabid tuzum davridan saqlanib kelayotgan sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchilarga nisbatan ishonchsizlikni keltirish mumkin. Ushbu ishonchsizlikning saqlanib qolishiga bozordagi raqobatning kuchsizligidan, bozorning to'liq o'zlashtirilganligidan foydalanuvchi sug'urtalanuvchilarning uzoqni o'ylamagan holda ish tutishi, natijada sug'urta shartnomalarini o'z manfaatlarini ko'zlagan holda ishlab chiqishi (sug'urta qoplamasini to'lamaslik imkonini beruvchi shartlarga ega bo'lgan sug'urta shartnomalarining ishlab chiqilishi nazarda tutilmoqda) sabab bo'lmoqda. Shunday mazmundagi sug'urta shartnomalarining amalda qo'llanilishi hamda bozorda "soxta sug'urtalovchi" iborasiga mos keluvchi sug'urta kompaniyalarining kam sonda bo'lsada mavjudligi hamda sug'urta qoplamasini olish bilan bog'liq hujjatbozliklarning ko'pligi 2021-yil natijalari bo'yicha umumiy sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining atigi 20,4 foizi sug'urta qoplamalari uchun yo'naltirilishiga sabab bo'lgan degan xulosani beradi. Ushbu holat sug'urtalanuvchilar va ko'p sonidagi potensial sug'urtalanuvchilarda sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchsizlikning asosiy sababidir.

Sug'urta xizmatlaridan foydalanmaslikka respublikamizdagi ba'zi aholi qatlamlarida sug'urta xizmati shariat talablariga to'g'ri kelmaydi degan fikrning mavjudligi ham sabab bo'lmoqda. Shu masalada dunyo mamlakatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aholisining katta qismi musulmon diniga mansub bo'lgan davlatlar va hattoki to'liq musulmon mamlakatlarda sug'urta xizmatlarining aholini qamrab olganlik darajasi bizning mamlakatdagidan bir necha baravar yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bunday mamlakatlarda bir vaqtning o'zida an'anaviy sug'urta xizmatlari hamda ushbu sug'urtadan ko'p farq qilmaydigan islomiy sug'urta (takoful sug'urta) tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Aslida sug'urta xizmatlari ijtimoiy himoyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan bir qancha risklar majburiy sug'urta sifatida qonun asosida amalga kiritiladi. Mamlakatimizda shunday xususiyatga ega bo'lgan risklar sifatida transport vositalari egalarning fuqarolik javobgarligi, ish beruvchi korxona va tashkilotlarning o'z xodimlari oldidagi javobgarligi hamda yo'lovchi tashuvchi korxonalarining yo'lovchilar oldidagi javobgarligi qonun asosida majburiy sug'urtalanadi. Tibbiy xizmatlar bilan bog'liq davlat sug'urtasi ham mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga kiritilmoqda. Mazkur majburiy sug'urta turlarini qonun asosida majburiy sug'urta sifatida amalga kiritish orqali yo'l-transport hodisalari, ish faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida yuzaga keladigan baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklari va boshqa kasallanishlar natijasida ijtimoiy himoyaga muhtojlik yuzaga keladigan ko'p sonidagi aholining ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi.

Bizning nazarinizda sug'urta vositasida ijtimoiy himoyalash zarur bo'lgan yana bir nechta ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan risklar mavjudki, ularni ham qonunchilik asosida majburiy sug'urta sifatida amalga kiritish ko'plab oilalarni, korxona va tashkilotlar hamda tadbirkorlik subyektlarini kutilmaganda yuzaga keladigan tang holatdan himoyalaydi. Bu yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulklarini yong'indan majburiy sug'urtasidir. Majburiy sug'urta borasida shuni ta'kidlash mumkin, dunyo olimlarining xulosalariga ko'ra, majburiy va ixtiyoriy sug'urta o'rtasidagi optimal nisbat 30/70 hisoblanib, shunday nisbatda sug'urtaning ijtimoiy himoya funksiyasi samarali amal qiladi va shu bilan birga aholida sug'urta borasidagi huquqiy bilimlar hamda sug'urta madaniyati shakllanadi. Bu borada 2021-yil natijalari bo'yicha O'zbekistonda amaldagi majburiy sug'urta turlarining jami sug'urta xizmatlaridagi ulushi 15 foizni tashkil etganligini ma'lumot sifatida keltirib o'tish joiz.

Yong'inlar masalasiga qaytadigan bo'lsak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslarning bino va inshootlarida turli sabablar natijasida yuz beradigan yong'inlar soni bir yilda o'rtacha 14 000 tani tashkil etadi. O'z-o'zidan ma'lum, yong'in natijasida ko'riladigan moddiy zararlar odatda katta miqdorni tashkil etadi. Korxonaga yetkazilgan bunday zarar natijasida mazkur korxonaning keyingi faoliyati jiddiy qiyinchilikka uchraydi. Oila xonadonlarida yuz bergan yong'inlar esa oilaning tang ahvolda qolishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz onalar, ayollar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida temir daftar, ayollar daftari, yoshlar daftari kabi maxsus ro'yxatlar shakllantirilib, ushbu ro'yxatga kiritilganlarga turli ko'rinishdagi moddiy yordamlar ko'rsatib kelinmoqda. Ushbu maqsadlarga katta miqdordagi byudjet mablag'lari sarflanadi. Ammo ushbu mablag'lar asosan bunday oilalarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kundalik ehtiyojlarini ta'minlash kabilarga qaratilgan bo'lib, turli kutilmagan hodisalar natijasida ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallanmagan.

Yuqorida keltirilgan kam ta'minlangan aholi qatlamlarini turli kutilmagan hodisalardan moddiy himoyalash maqsadida mikrosug'urta xizmatlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish chet mamlakatlar tajribasidan o'tgan samarali vosita hisoblanadi. Ushbu himoyani davlat-xususiy sherikchiligi asosida yo'lga qo'yish, ya'ni sug'urta kompaniyasiga to'lanadigan sug'urta mukofotini davlat tomonidan to'lab berish orqali kam ta'minlangan aholi qatlamlarini yoppasiga sug'urtalashga erishish mumkin. Ushbu usul orqali ko'p sonidagi kam ta'minlangan oilalar turli kutilmagan hodisalardan ijtimoiy himoyalanaadi va sug'urta xizmatlarining qamrovi kengayib, shu bilan birga sug'urtaning ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi jihatlarini aholi

orasida yaqqol namoyon bo'lib, ularda sug'urtaga bo'lgan ishonch ortadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, sug'urta sohasi iqtisodiyotni va aholi qatlamlarini turli kutilmagan hodisalardan himoya qilishni amalga oshiruvchi o'ziga xos soha hisoblanadi. Rivojlangan

sug'urta bozori iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanib, uning barqarorligini ta'minlash va shu bilan birga, iqtisodiyot rivoji uchun birinchi darajali omil hisoblangan investitsion manba sifatida amal qiluvchi soha ekanligini e'tiborga olgan holda davlat mazkur sohani rivojlantirishga har tomonlama e'tibor qaratishi muhim hisoblanadi.